
Koreyada “Katta quyosh qurilmasining texnologik imkoniyatlari va materiallar sintezi” taqdimoti

Koreya Sanoat Texnologiyalari instituti (KITECH) tomonidan o‘tkazilayotgan “Yuqori saviyali ekspertlar almashinuvi dasturi” doirasida Materialshunoslik instituti direktori O.Parpiyev Kongju universitetida koreys tadbirkorlari uchun “Katta quyosh qurilmasining texnologik imkoniyatlari va materiallar sintezi” mavzusida taqdimot o’tkazdi. Materialshunoslik instituti tomonidan ishlab chiqilgan yuqori samarali payvandlash texnologiyalari va materiallari katta qiziqish uyg‘otdi. Materiallarning namunalarini KITECH korxonalarida sinovlarini o’tkazish va uning natijalariga ko’ra transferini amalga oshirishga kelishildi.



Shuningdek, O’zbekiston-Koreya biznes markazida KITECH tomonidan ishlab chiqariladigan ilmiy va sanoat asbob-uskunalarini O‘zbekistonga yetkazish, ilg‘or texnologiyalar transferi va KITECHning vakolatxonasini O‘zbekistonda ochish masalalari muhokama qilindi